



**TA'LIMiy O'YINLAR FOYDALANISH ASOSIDA O'QUVCHILARNI  
KOLLABORATSIYA, KOMMUNIKATIVLIK, KRITIK VA KREATIV  
FIKRLASHGA YO'NALTIRISH IMKONIYATLARI**

**Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna**

**+998972456806**

**Sirdaryo viloyat pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim  
metodikalari kafedrasi mudiri v.v.b**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda ta'limiy o'yinlar asosida o'quvchilarni kollaboratsiya, kommunikativlik, kritik va kreativ fikrlashga yo'naltirilgan ta'limiy o'yinlardan foydalanish imkoniyatlari o'yin namunalari asosida ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, ta'limiy o'yin, 4K modeli – kritik, kreativ fikrlash, kollaboratsiya va kommunikativlik.

**ВОЗМОЖНОСТИ НАПРАВЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА КОЛЛАБОРАЦИЮ,  
КОММУНИКАЦИЮ, КРИТИЧЕСКОЕ И ТВОРЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ С  
ПОМОЩЬЮ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИГР**

**Аннотация.** В данной статье показаны возможности использования обучающих игр, направленных на коллаборацию, коммуникацию, критическое и творческое мышление учащихся в начальных классах.

**Ключевые слова:** начальное образование, обучающая игра, модель 4К – критическое и творческое мышление, коллаборация и коммуникация.

**OPPORTUNITIES TO GUIDE STUDENTS TOWARD COLLABORATION,  
COMMUNICATION, CRITICAL AND CREATIVE THINKING THROUGH THE  
USE OF EDUCATIONAL GAMES**

**Abstract.** This article shows the possibilities of using educational games aimed at collaboration, communication, and critical and creative thinking of students in elementary schools.

**Keywords:** elementary education, learning game, 4C model - critical and creative thinking, collaboration, and communication.



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 15-maydagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023–2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 125-son buyrug'iga ko'ra umumiy o'rta ta'limning 1–4-sinflari uchun ilg'or xorijiy tajribalar asosida yaratilgan darslik majmualarini amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra boshlang'ich ta'lim darslarini tashkil etishga ham yangiliklar kiritildi, ya'ni 4K modeli asosida tashkil etish yo'lga qo'yildi. Maktab ta'limidagi o'quvchilarning bilim olishi, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, yurtimiz farzandlarini ergashuvchi emas, ergashtiruvchi inson qilib tarbiyalash -XXI asr talabi.

Boshlang'ich sinflarda ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish davr talabi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar oddiy mashg'ulotlarga nisbatan faolroq ishtirok etadi va mashg'ulot samaradorligi oshadi. Mashg'ulotlarni integrallashgan tarzda turli noan'anaviy o'yin usullaridan foydalanib tashkil etilsa yanada samaraliroq bo'ladi.

O'yin bola uchun ermak, quvonch manbaigina emas, uning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini o'stirishga xizmat qiladigan vosita hamdir. Bola hayotida o'yin uning harakatga, ishga, atrofdagi hayot taassurotlarini tushunishga bo'lgan intilishini qondiradigan muhim faoliyat turidir.

O'yinga asoslangan bunday texnologiyalarning o'rni, avvalo o'yin elementlarining funktsiyalarini o'qituvchi, o'quvchilarga qanday tushuntirishga va qanday yetkaza olishga bog'liq. Ikkinchidan, quydagi holatlardagiga u samarali bo'ladi:

- DTS talablariga javob bera oladigan, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga asoslangan bo'lsa;
- Fanlararo uzviylikni yakka tartibda va guruhlarda qo'llay olsa;
- Oldindan o'quv dasturiga mos rivojlantirib, zamonaviy texnologiyalariga asoslangan bo'lsa.

### **Kollaboratsiyaga oid "Alfobingo" o'yini namunasi**

O'qituvchi bir shahar (gul, hayvon, meva) aytadi o'quvchilar ketma-ket oxirgi harfiga oid shahar aytish vazifasi berildi:

1-guruh: Andijon, Namangan, Nukus, Samarqand.....



2-guruh: Farg'ona, Asaka, Angren.....

3-guruh: Sirdaryo, Olmaliq, Qo'qon.....


4-guruh: Toshkent, Termiz, Zarafshon, Norin.....

Bu o'yindan ona tili, o'qish savodxonligi, tabiiy fan darslarida qo'llanish imkoniyatlari ko'proq.

### Kritik fikrlashga oid "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha" o'yini

O'quvchilarning tahlil qila olish, mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu o'yin alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ... ) tushunchaning o'rin olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim). Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.







### Javobi: Beruniy.

#### Kommunikativlikka oid “Gapni davom ettir” o‘yin namunasi

Bu o‘yinning qoidasiga ko‘ra o‘qituvchi bitta qisqa gap aytadi. Boshqa o‘quvchilar aynan shu gapga so‘z qo‘shib boraveradi. Qaysi guruh so‘z qo‘sha olmasa yoki xatoga yo‘l qo‘ysa, mag‘lub bo‘ladi, vazifani to‘liq bajargan guruh golib sanaladi.

Masalan: 1- guruh: Gul ochildi.

Gulzorda gul ochildi

Gulzorda qizil gul ochildi

Gulzorda qizil lola gul ochildi

Bizning gulzorda qizil lola gul ochildi

2-guruh: Insho yozdim

Men insho yozdim

Men oilam haqida insho yozdim

Men oilam haqida mazmunli insho yozdim

Men oilam haqida mazmunli, qiziqarli insho yozdim. kabi topshiriqlari asosida guruhlar vazifani bajardilar.

#### Kreativ fikrlashga oid “Meni tushun” o‘yini

Sinf kichik guruhlariga birlashtiriladi. O‘qituvchi har bir guruhning bir a‘zosi qulog‘iga biror mavzuga oid so‘z aytadi. Buni eshitgan o‘quvchi sherigi qulog‘iga nima tushungan bo‘lsa shuni aniq tasvirlab uning xususiyatlarini to‘la bayon qilishi lozim. Masalan: ”So‘z turkumlari” mavzusi asosida o‘qituvchi “Ot –so‘z turkumi”:

1. Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘z turkumi.
2. Bu so‘z turkumi gapda ega vazifasida keladi.
3. ....

Guruhdagi oxirgi o‘quvchidan eshitgan ta’rifdan nimani tushungani so‘raladi: „Ot-so‘z turkumi” deb javob bersa to‘g‘ri, boshqacha bo‘lsa, qaysi guruh ishtirokchilari bir-birlarini tushunishda xatoga yo‘l qo‘yganligi aniqlanadi.

2-guruhga “Sifat”, 3-guruhga “Son”, 4-guruhga “Fe’l” so‘zlari beriladi.

Bular ham yuqoridagidek davom etib yakunida to‘g‘ri va notog‘riligi aniqlandi.



2-usul. Har bir guruh a'zosining bittasiga qog'ozda yozilgan so'z beriladi, u sherigiga buni nomini yozmay, xususiyatlarini yozgan holda qogozni buklab beradi qolganlar ham shu tarzda davom ettiradi. Oxirgi ishtirokch nomini aytadi, boshidagi so'z bilan moslik o'rtadagi ta'riflar orqali o'qib aniqlanadi.

Masalan: Ayiq–Asalxo'r hayvon–Masha va ..... –Maymoqlanib yuradigan yovvoyi hayvon– .....asal yaladi, asalari taladi– Ayiq.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishda o'yinlardan foydalanish asosida yanada ularni ijodiy ishlash, mustaqil fikrlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish, jamoda ishlash, o'zaro muloqot madaniyati oshib borish imkoniyatlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich ta'limda ta'limiy o'yinlardan foydalanish asosida 4K modeli – kritik, kreativ fikrlash, kollaboratsiya va kommunikativlikni rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2023-2024-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2023-yil 15-maydagi 125-son buyrug'i.
2. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodikasi" dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo'llanmasi. Toshkent – 2023.
3. D.D.Baynazarova , M.E.Toirova Ona tili Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.
4. U.B.Aydarova. *O'qish savodxonligi*. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.
5. I.V.Repyova. *Matematika*. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.
6. Y.V.Malikova. *Tabiiy fanlar*. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.